



YEM-HASHAK O'SIMLIKLARINING TAVSIFI VA TASNIFLANISHI.

ADPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Biologiya yo'nalishi talabalari

Qo'ldosheva Karimaxon Baxtiyorjon qizi

Odilova Zuhraxon Xojiqurbon qizi

ADPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti o'qituvchisi

Tojiboyev Murodali Umaraliyevich

Annotatsiya: ushbu maqolada turli mintaqalarda o'suvchi yem-hashak o'simliklari, ularning chorvachilik uchun ahamiyati va zahirolari yoritilgan. Chorva ozuqalariga bo'lgan talabni qondirish maqsadida yem-hashak bazasini yaratish, madaniy va yovvoyi o'simliklardan foydalanish, shuningdek, ularning hosildorligi, yeyimliliigi va ozuqaviy qiymati muhimligi ta'kidlangan.

Abstract: this thesis discusses the fodder plants growing in different regions, their importance and reserves for livestock farming. The importance of creating a fodder base, using cultivated and wild plants, as well as their productivity, edibility and nutritional value, is emphasized in order to meet the demand for livestock feed.

Kalit so'zlar: madaniy o'simliklar, yovvoyi o'simliklar, yarimbutalar, o'tlar, to'yimli yem, yem sifatini oshirish, yem-hashak o'simliklari, chorvachilik, ozuqa zahirolari, hosildorlik, ozuqaviy qiymat.

Keywords: cultivated plants, wild plants, subshrubs, herbs, nutritious feed, improving feed quality, forage plants, feed reserves, productivity, nutritional value.

Bizga ma'lumki, aholining chorva mollariga bo'lgan talabi kun sayin o'sib bormoqda. Respublikamizda shu muammoni hal qilishda ancha tadbirlar o'tkaziladi. Bu tadbirlarning asosiy yo'nalishi - yem-xashak bazasini yaratish.



Bu ish jarayonida tashkiliy, xo‘jalik va texnologik tadbirlar bajarilib chorvani ozuqalar bilan tahminlash imkoniyati yaratiladi. Ushbu guruhga chorva mollari hamda yovvoyi hayvonlar uchun yem sifatida ishlatiladigan madaniy va yovvoyi holda o‘sovchi o‘simliklar kiradi. [1] Yem-hashak o‘simliklariga turli hayotiy shakldagi o‘simliklar misol bo‘la oladi - daraxtlar, butalar, yarim butalar, o‘tlar, lishayniklar va h.k. Masalan, keng bargli daraxtlarning shoxchalarini yoki ignabargli daraxtlarning shoxchalarini vitamininga va ozuqaga boy yem sifatida ishlatish mumkin. Ammo yem hashak sifatida o‘t o‘simliklarning ayniqsa ko‘p yillik o‘tlarning ahamiyati juda katta. Bu borada bug‘doydoshlar (*donli ekinlarning*) va burchoqdoshlarning yem-hashak sifatidagi o‘rni nihoyatda beqiyos. Yem-hashak o‘simliklarning xo‘jalik ahamiyati ularning hosildorligi, to‘yimliligi, yeyimliligi va ularning yaylovlarda tarqalish darajasi bilan belgilanadi. Yem-hashak o‘simliklarning naqadar ozuqabopligi ulardagi proteinlar (*oqsillar*) ning va kletchatkaning miqdoriga bog‘liq: qanchalik protein ko‘p va aksincha kletchatka miqdori kam bo‘lsa, o‘simlik shunchalik ozuqabop (*to‘yimli*) bo‘ladi. [2]

Turli o‘simliklarda oqsilning miqdori turlicha bo‘ladi, uning miqdori yana bir turga mansub o‘simliklarda vegetasiya fazalariga qarab ham har xil bo‘ladi. Yem-xashak o‘tlarni ekishdan maqsad - chorvachilikda talab qilinadigan har xil ozuqalarni yetishtirish. O‘tlar to‘yimliligi bilan ajralib turadi, tarkibida asosiy hayot uchun zarur vitaminlarning hammasi mavjud. O‘tlardan tayyorlangan ozuqalar oson hazm bo‘ladi, qishin - yozin ishlatiladi. O‘t ekilgan ekinzor tuproqni suv va shamol yemirilishidan saqlaydi, tuproqning unumdorligini oshiradi, chirindi miqdori ko‘payadi. Bir yillik o‘tlar takroriy va oraliq ekin sifatida ekilib, erta yetilib sug‘oriladigan yerlarni erta bo‘shatadi. Eng ko‘p ekiladigan o‘tlar - dukkakli va qo‘ng‘irbosh o‘tlardir. O‘zbekiston florasida qimmatli yem-hashaklik ahamiyatiga ega bo‘lgan o‘simliklar ko‘plab topiladi. Burchoqdoshlarning 96 ta , bug‘doydoshlarning 184 ta,

ziradoshlarning 10 tadan ziyod, qoqio‘tdoshlarning 30 ga yaqin turi yem-hashak o‘simliklari sifatida qadrlanadi.[4]

Yem-hashak o‘simliklari ulardan foydalanilishiga ko‘ra quyidagi 4 ta guruxga bo‘linadi: yaylov, o‘riladigan (*pichanbop*), silosbop va urug‘li(*konsentrlangan*). Yaylov yem-hashak o‘simliklari O‘zbekistonning tekisliklarida, tog‘oldi qismlaridagi dengiz satxidan 1200 m.gacha bo‘lgan balandlikdagi yalangliklarda hamda tog‘ va yaylov mintaqasida keng tarqalgan. Bu yerlarda qo‘ng‘irbosh (*Poa pratensis*, *R.bulbosa*), yaltirbosh (*Bromus tectorum*), rang (*Carex pachystylis*), otqo‘noq (*Phleum pratense*), sebarga (*Trifolium repens*) turkumlarining turlari o‘sadi. Tog‘oldi va tog‘ xududidagi turli soyliklari oralig‘i va ularning quyi oqimlaridagi rangli-boshqoli o‘t o‘simliklari jamoalari tarkibida ushbu gurux o‘simliklari ko‘plab uchraydi. [2]

Eng keng tarqalgan o‘riladigan yem-hashak o‘simliklari tarkibi xilma-xil bo‘lib, quyidagi turkumlarning vakillarini o‘z ichiga olgan: boshog‘riqo‘t (*Achillea millefolium*, *A.filipendulina*), tulkiqyruq (*Alopecurus pratensis*), bug‘doyiq (*Agropyron repens*), oqso‘xta (*Dactylis glomerata*), itqo‘noq (*Setaria viridis*), otquloq (*Rumex confertus*), g‘ozpanja (*Potentilla reptans*, *P.erecta*), marmarak (*Salvia sclarea*). Bu o‘simliklar guruxi vakillari 1500 m.gacha bo‘lgan balandlik mintaqasida ko‘plab tarqalgan.[3]

Silosbop yem-hashak o‘simliklari asosan daraxt va butalarzorlar ostida va ular oralig‘ida kichikroq yalangliklarda o‘sadi. Chunki bu gurux o‘simliklar soyasevar va soyaga chidamli o‘simliklar hisoblanadi.[2]

Urug‘li yem-hashak o‘simliklaridan kovrak (*Ferula assa-foetida*, *F.tenuisecta*), itqo‘noq (*Setaria lutescens*), bug‘doyiq (*Agropyron repens*), kurmak (*Echinochloa crus-galli*), otqo‘noq (*Phleum pratense*), rango‘t (*Sinapis arvensis*), javdar (*Secale cereale*) turkumlari turlari o‘sadi.[2]

Ushbu guruxga kiruvchi o‘simliklarning urug‘i pishib yetilgandan yig‘ib olinadi. Bu urug‘lar qoramollardan tashqari barcha chorva hayvonlari va qushlar uchun ozuqa hisoblanadi.

Xulosa: yem hashaklari chorvachilikda oziqlanish manbai sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular hayvonlarning sog'lom o'sishi, sut va go'sht hosildorligini ta'minlaydi. Hashaklarning turi, sifat va zahiralar usullari chorva uchun qulay va barqaror oziqlanishni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli, yem hashaklarini to'g'ri tayyorlash va saqlash chorvachilik samaradorligini oshirish uchun zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Tulyaganova M. Yuldashev A.S. O'zbekistonda keng tarqalgan foydali o'simliklar. Toshkent-2011.
2. Пратов У.П., Набиев М.М. O'zbekiston yuksak o'simliklarining zamonaviy tizimi. Toshkent. 2008 62 b. O'qituvchi.
3. Haydarov Q.H., Hojimatov Q.H. O'zbekiston o'simliklari. – Toshkent, 1992. - 241 b
4. "Botanika resursshunoslik" fanidan o'quv-uslubiy majmua. Yuldashev A.S. – And.DU, Tojiboyev M.U– And.DU, Andijon – 2018.